



## ISLOMIY QIMMATLI QOG'OZLARGA OID ILMIY ADABIYOTLAR SHARHI

**Yaqubjonov Abdulaziz**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada islomiy qimmatli qog'oz hisoblangan sukuk haqida ma'lumot berilgan bo'lib uni qay tartibda kimlar emissiya qilishi, moliya bozorlariga chiqarilishi va uning mamlakat iqtisodiyotida tutgan ahamiyati bayon qilingan turli xil ilmiy ishlar o'rganib chiqilgan hamda tahlil qilingan. Ilmiy ishlarni o'rganish va tahlil qilish jarayonida xalqaro tajribalar o'rganilib, sukuklarni moliya bozoriga joriy qilishning xalqaro tajribalari keltirib o'tilgan. Bunda ScienceDirect, Google Scholar va boshqa ilmiy bazalardan mavzuga doir xorij va yurtimiz olimlari tomonidan yozilgan 50 ta maqola ajratib olingan va o'rganilgan hamda ulardan 20 tasi mazkur ilmiy ishimizda o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar:** islom moliyasi, sukuk, emitent, emissiya qilish, fond bozori, moliya bozori, investitsiya, moliyalashtirish.

## ОБЗОР НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ПО ИСЛАМСКИМ ЦЕННЫМ БУМАГАМ

**Якубжонов Абдулазиз**

*Ташкентский государственный экономический университет*

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о сукук, который является исламской ценной бумагой. Рассматривается порядок его выпуска, механизм введения на финансовые рынки, а также проанализированы различные научные работы, посвященные роли сукук в экономике страны. В процессе изучения и анализа научных исследований освещен международный опыт, включая внедрение сукук на финансовые рынки. В работе было отобрано и изучено 50 статей от зарубежных и отечественных ученых по данной теме с использованием ресурсов, таких как ScienceDirect, Google Scholar, и другие научные базы данных. В результате этого анализа 20 статей внесли свой вклад в настоящую научную работу.

**Ключевые слова:** исламские финансы, сукук, эмитент, эмиссия, фондовый рынок, финансовый рынок, инвестиции, финансирование.

## REVIEW OF SCIENTIFIC LITERATURE ON ISLAMIC SECURITIES

**Yakubjonov Abdulaziz**

*Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** This article presents comprehensive information on sukuk, an Islamic security, which is considered an Islamic security, in which order it is emitted, and its introduction into financial markets, and various scientific works that describe its importance in the country's economy have been studied and analyzed. The study encompasses an exploration of international experiences in sukuk implementation, citing instances of its introduction into global financial markets. A thorough examination of 50 articles, sourced from both foreign and domestic scholars, was conducted via platforms such as ScienceDirect, Google Scholar, and other scientific databases. This scientific work synthesizes insights from 20 selected articles to provide a nuanced understanding of the subject.

**Key words:** islamic finance, sukuk, issuer, issuance, stock market, financial market, investment, financing.

### **Kirish.**

Islom moliyasi — bu shariat yoki islom qonunlariga mos keladigan moliyaviy faoliyat tizimidir. Islom moliyasining asosiy tamoyillari foiz (ribo)ni taqiqlash, haddan tashqari noaniqlik (g'arar)dan va chayqovchilik (maisir)dan saqlanish, axloqiy va ijtimoiy fikrlarga rioya qilishni o'z ichiga oladi. Islom moliyasi iqtisodiyotni real aktivlar asosida rivojlantirish asosiga ega hisoblanadi. Islom moliyasida ko'plab instrumentlar qatorida sukuk alohida ajralib turadi. Sukuk (sakkning ko'pligi) arabcha atama bo'lib, ko'pincha islomiy obligatsiyalar deb ta'riflangan islomiy moliyaviy sertifikatlariga ishora qiladi. Sukuk foiz to'lash yoki olishni (ribo) taqiqlovchi islom tamoyillariga (shariatga) mos keladigan investitsiya shaklidir. Foizlarni to'lashni o'z ichiga olgan an'anaviy obligatsiyalardan farqli o'laroq, sukuk asosiy aktivlardan olingan foydani taqsimlash orqali daromad olish uchun tuzilgan. Sukuk egalari sukuk bilan bog'langan aktivlardan olingan foydaning bir qismini oladi.

Iqtisodiy rivojlanib borayotgan O'zbekiston uchun islohotlarni muttasil va doimiy davom ettirish uchun yangidan yangi moliyaviy manbalar juda muhim hisoblanadi. O'zbekiston Markaziy Osiyoda aholi soni bo'yicha mintaqadagi eng katta davlat bo'lib, aholi tarkibining 90 foizdan ortig'i musulmonlarni tashkil qilgan 36 milliondan ortiq nufusga ega (kun.uz, 2024). Aholi tarkibining katta qismini musulmonlar tashkil qilishiga qaramay O'zbekistonda Islomiy moliya sohasi boshqa musulmon va qo'shni mamlakatlarga qaraganda deyarli rivojlanmagan, vaholanki ushbu sohaning rivojlanishida mamlakat juda katta salohiyatga ega. Buni yirik xalqaro moliyaviy tashkilotlar (Islom Taraqqiyot Banki Guruhi, Xalqaro Moliya Korporatsiyasi, Osiyo Taraqqiyot Banki va b.) ekspertlari tomonidan e'tirof etgan. Mutaxassislar fikricha, islomiy bankinni joriy etilish orqali mamlakat \$10 mlrdgacha qo'shimcha xorijiy sarmoya jalb etishi mumkin (spot.uz, 2019). Shu bilan birga, so'nggi yillarda xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda ushbu yo'nalishda ba'zi bir ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda islomiy moliyaga o'tish 2018-yildan boshlangan bo'lib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning shaxsan o'zi bu yo'nalishga ko'p bor urg'u berganlar. Jumladan Prezidentning 2020-yil 29-dekabrda Parlamentga qilgan murojaatnomasida mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqti-soati kelganligi. Bunga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etilishligi alohida ta'kidlangan. Islom moliya sanoatining jami aktivi 2023-yil oxirida yuqori o'sish sur'atiga ega bo'lib, 4 trillion dollarni tashkil etdi (IFSB, 2023). Yuqoridagilarni inobatga olgan holda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi (Farmon, 2023) tasdiqlangan bo'lib uning ikkinchi yo'nalishi "Barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish" deb nomlanadi va aynan shu yo'nalish doirasida bir qancha iqtisodiy islohotlarni o'tkazish belgilab berilgan. Strategiyaning 50-maqsadi ham alohida ahamiyatga molik bo'lib "Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish" deb nomlanadi bu maqsad doirasida kamida 3 ta tijorat banklarida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etish va islom moliyasining qonuniy asoslarini shakllantirish ta'kidlab o'tilgan.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Sukuk musulmon bo'lgan va bo'lmagan mamlakatlarda tez rivojlanib borishi sababli unga bo'lgan qiziqish ham ortib bormoqda. Butun dunyoda ko'plab olimlar sukuk asosida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borgan va biz ulardan ba'zilarini keltirib o'tamiz. Andrea Paltrinieri va boshqalar (2023) "Sukuk: adabiyotlarning bibliometrik sharhi" nomli ilmiy ishida 1950-yildan 2018-yilgacha bo'lgan davrda sukuk bo'yicha tadqiqot yo'nalishlari va kelajakdagi tadqiqot savollarini aniqlash uchun 80 ta ilmiy adabiyotlar o'rganilgan va tahlil qilingan. Maqolada islomiy moliya turli sohalarda, jumladan, islom banklari, sukuk, islom fond indeksleri va investitsiya fondlarida sezilarli o'sishga erishilgani alohida takidlangan. Ilmiy asarda 1950-

yildan 2018-yilgacha bo'lgan sukuk adabiyotlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda bibliometrik iqtiboslar va birgalikda iqtibos keltirish tahlili kabi turli usullar qo'llanildi. Bundan tashqari, 1992 va 2022-yillar oralig'ida Yevropa davlat boshqaruvlarida barqaror moliya bo'yicha chop etilgan 82 ta maqolaning tizimli adabiyotlar sharhining tahlili taqdim etilgan.

Ezzedine Ghlamallah va boshqalar (2021) "Islom iqtisodiyoti va moliyasi tadqiqotlari mavzulari" asarida islom iqtisodiyoti va moliyasi yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlar chuqur tahlil qilingan va o'rganilgan. Tadqiqotchilar 1979-yildan 2018-yilgacha bo'lgan davr mobaynida chop etilgan 1500 ga yaqin ilmiy ishlarni o'rganib chiqishgan va iqtisodiy, moliyaviy va axloqiy masalalarni qamrab olgan 11 ta mavzu doirasida islom iqtisodiyoti va moliyasi adabiyotini yaxshi ta'riflash mumkinligini tadqiq qilishgan. Shuningdek asarda islom iqtisodiyotining an'anaviy iqtisodiy tizimda mavzuda bo'lmagan o'ziga hosliklari haqida fikr yuritilgan.

Siti Sara va boshqalar (2019) tomonidan yozilgan "Sukuk shartnomalari, tuzilmalari va narxlash mexanizmlari: tanqidiy baholash" nomli asarida hozirda mavjud adabiyotlarda faqat sukukning tabiati va tuzilmalariga e'tibor qaratilganligi, biroq sukukning bahosi ko'p jihatdan e'tiborga olinmaganligi takidlangan. Ushbu maqolada sukukning shartnomalari, tuzilmalari va narxlash mexanizmi ko'rib chiqilgan. Aniqroq aytganda, ushbu tadqiqotda bir nechta sukuk vositalari o'rganilgan, mavjud tuzilmalarni ko'rib chiqilgan, sukuk narxlarini belgilash mexanizmlarini namoyish etilgan va sukukning har bir turi bo'yicha muhim masalalarni muhokama qilingan. Asarda, shuningdek, ushbu tadqiqotda muhokama qilingan muammolarning mumkin bo'lgan yechimlarini ko'rib chiqilgan. Yana ilmiy ishda asarni o'qish orqali o'quvchilar sukukning muhim texnik elementlarini tushunishlari va sukukni an'anaviy obligatsiyalardan farqlashlari va islom moliyasining muhim elementlari to'g'risida tushuncha hosil bo'lishi mumkinligi haqida fikr bildirilgan.

Andrea Delle Fogli va Ida Klaudiya Panetta (2020) larning "islomiy qimmatli qog'ozlar bozori va an'anaviy fond bozori: islomiy investitsiya investorlar uchun xavfsizmi?" nomli maqolasida Islom fond bozori (IFB) va an'anaviy bozor o'rtasidagi taqqoslashni ko'rib chiqish orqali moliyaviy bozorlarning globallashuvi va modernizatsiyasi global moliyaviy tizimlarning qayta shakllantirilishi va isloh qilinishiga olib kelganligi ta'kidlanadi. Asarda butun jahon moliyaviy inqirozdan keyin islomiy moliya tizimi so'nggi sezilarli o'sish va tiklanishni ko'rsatganligi, an'anaviy moliya tizimi esa qiyinchilikka duch kelganligi ko'rib chiqilgan. Maqolada mintaqaviy omillarning Fors ko'rfazi hamkorlik kengashi bozorlaridagi fond daromadlariga ta'siri o'rganiladi. Bundan tashqari ilmiy ishda islom fond bozori va uning investorlar portfelini boshqarish uchun afzalliklari bo'yicha so'nggi adabiyotlarni tahlil qilingan.

Muhammad Amrani va boshqalar (2017) "Sukuk: Adabiyot sharhi" nomli ilmiy maqolasida islom moliyasi, xususan, sukuk (islom obligatsiyalari) global moliyaviy inqiroz davrida an'anaviy moliyalashtirishga kamroq ta'sir ko'rsatadigan muqobil sifatida ko'rilgan. Sukuk investorlarga o'z portfellarini diversifikatsiya qilish va diniy tamoyillarga muvofiq sarmoya kiritish usulini taklif qiladi. Sukukning har xil turlari mavjud, jumladan sukuk al mourabaha, bu nol kupon obligatsiyalariga o'xshaydi. Maqolada ta'kidlanishicha sukuk an'anaviy obligatsiyalar bilan solishtirganda diversifikatsiya qilishda foyda keltirishi va sezgirligiga ega. Sukuk ko'rsatkichlari va an'anaviy obligatsiyalar o'rtasida bog'liqlik yo'qligi ta'kidlangan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur izlanish mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy ishlarni o'rganib chiqish va tahlil qilishga yo'naltirilganligi uchun bibliografik tadqiqot usulidan foydalangan. Bunda ScienceDirect, Google Scholar va boshqa ilmiy bazalardan mavzuga doir horij va yurtimiz olimlari tomonidan yozilgan 50 ta maqola ajratib olingan va o'rganilgan hamda ulardan 20 tasi mazkur ilmiy ishimizda o'z aksini topgan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

So'nggi o'n yillikda islomiy moliya bir qancha sohalarida misli ko'rilmagan kengayishning guvohi bo'ldi, jumladan, islom banklari, shariatga mos moliyaviy vositalar, sukuk, islom fond indeksleri va investitsiya fondlari. Sukuk va uning mamlakat moliyaviy iqtisodiy barqarorligiga ta'siri va uni qanday qay tartibda chiqarib moliya bozorlariga kiritish bo'yicha dunyoda ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan, shu ilmiy asarlardan bazilarini keltirib o'tamiz.

Islom moliyasining jahon mamlakatlarida tez suratda rivojlanib borayotganligi haqida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borgan shulardan biri Abdul Rahmon Yusri Ahmad (2018) "Musulmon mamlakatlar fond bozorlarida islomiy qimmatli qog'ozlar va islomiy ikkilamchi bozorga bo'lgan ehtiyojni baholash" nomli ilmiy ishida zamonaviy islomiy faoliyat bilan islom mamlakatlarida bank, sarmoya va savdo sohalarida hukmron bo'lgan an'anaviy faoliyat o'rtasidagi ma'lum farqlarga qaramay, islomiy faoliyat shakl va ta'sir jihatidan asta-sekin o'z o'rnini egallab va an'anaviy to'siqlar orqali o'z ildizlarini hatto islomiy bo'lmagan dunyoga ham kengaytirib borayotganligi takidlangan. Bundan tashqari ushbu maqolada islomiy qimmatli qog'ozlarning faoliyatini va ularni islom mamlakatlaridagi mavjud qoidalar va iqtisodiy determinantlar doirasida rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganilgan. Maqolada, shuningdek, islomiy ikkilamchi fond bozorining zaruriyati va uning paydo bo'lish shartlari ko'rib chiqilgan.

Mamoru Nagano (2016) o'zining "Sukukni kim va qachon chiqaradi?: Islom obligatsiyalarining emissiyasini belgilovchi omillar tahlili" asarida Malayziya, Indoneziya, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklarining 2001-2013-yillardagi qimmatli qog'ozlar emitentlari ma'lumotlaridan foydalangan holda islomiy obligatsiyalar (Sukuk) emitentlarining an'anaviy qarz va aksiyadorlik emitentlaridan qanday farq qilishini o'rgangan. Maqolada sukuk bozoriga kirish imkoniyati sukuk emissiyasini tanlash uchun juda muhim va bu talab bajarilgandan so'ng, past moliyaviy cheklovlar va firmaning past baholanishi kabi omillar ham sukuk emissiyasini rag'batlantirishi qayd etilgan. Bundan tashqari maqolada Sukuk emitentlari va an'anaviy qarz va aksiyadorlik emitentlari o'rtasidagi farqlarni va sukuk bozoriga kirish imkoniyati sukuk emissiyasini tanlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini aniqlangan.

Sukuk bozori islom bankidan keyin islom moliya sanoatining asosiy drayveri hisoblanadi va nafaqat musulmon mamlakatlarida, balki Buyuk Britaniya, AQSH, Yaponiya kabi musulmon bo'lmagan mamlakatlarda ham keng tarqalgan. U birinchi navbatda investorlar, davlat tashkilotlari va tadbirkorlarga diniy e'tiqodlariga muvofiq o'zlarining investitsiya va moliyalashtirish ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini yaratish maqsadida ishlab chiqilgan. Kusuma va Silva (2014) ta'kidlashicha, sukuk ham davlat, ham xususiy tashkilotlarga yangi loyihalarni moliyalashtirish va barqaror o'sishga erishish uchun moliyalashtirish ehtiyojlarini diversifikatsiya qilish va kapital mablag'larini foyda keltiruvchi yo'nalishlarga tikish imkoniyatini beradi.

Islom moliyasi tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda sukuk bozorining rivojlanishi moliya bozorlarining rivojlanishi va institutsional sifat kabi boshqa omillarni hisobga olgan holda iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi o'z aksini topgan. Bu shuni ko'rsatadiki, sukuk bozorlari moliyaviy inklyuzivlik va investitsiyalarni rag'batlantirishi mumkin. Mana shunday ishlardan biri Housem Smaoui va Salem Nechi (2017) tomonidan yozilgan "Sukuk bozorining rivojlanishi iqtisodiy o'sishga turtki beradimi?" maqolasi hisoblanadi. Tadqiqot sukuk bozori rivojlanishining 1995-yildan 2015-yilgacha bo'lgan 18 ta sukuk emitent mamlakatlarida iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganadi. Tadqiqotda shuningdek, sukuk emissiyasi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik ta'kidlangan. Mualliflarning ta'kidlashicha, sukuk bozorining jamg'armalarni iqtisodiy faol loyihalarga yo'naltirish va uzoq muddatli debitor qarzdorliklarini moliyalashtirish imkoniyatini yaratish orqali umumiy iqtisodiy o'sishga hissasini qo'shadi. Tadqiqotda sukuk bozori rivojlanishining iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganish uchun dinamik panel modelidan foydalanilgan.



Huddi mana shu nuqtayi nazarni Abdelg'ani Echchabi (2016) ham o'zining "Sukukni moliyalashtirish iqtisodiy o'sishga yordam beradimi? Asosiy emitent mamlakatlarga urg'u" asarida ilgari suradi. Asarda ekonometrik empirik tahlil orqali yalpi ichki mahsulot (YAIM), yalpi kapital shakllanishi (YKSH)ning iqtisodiy o'sishga potensial ta'sirini o'rgangan. Ma'lumotlar nafaqat GCC (Ko'rfaz hamkorlik kengashi), balki boshqa mamlakatlar, jumladan Malayziya, Indoneziya, Turkiya, Pokiston, Singapur, Xitoy, Bruney, Qozog'iston, Germaniya, Buyuk Britaniya (Buyuk Britaniya), Gambiya va Fransiyani ham qamrab oladi. Ma'lumotlar Islomiy Moliya Axborot Xizmatlari (IFIS) va Jahon Bankining ma'lumotlar bazalaridan to'plangan, shunga ko'ra, topilmalar shuni ko'rsatdiki, sukuk emissiyasi faqat barcha mamlakatlar birlashtirilganda YAIM va yalpi kapital shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan.

Muhamed Zulkhibri (2015) "Sukuk bo'yicha nazariy va empirik tadqiqotlar sintezi" nomli ilmiy ishida sukuk bo'yicha nazariy va empirik adabiyotlarni uch nuqtayi nazardan tanqidiy ko'rib chiqqan: ularning asosiy nazariyasi va mohiyati, sukuk bilan bog'liq operatsion masalalar va tuzilmalar hamda sukukning iqtisodiy taraqqiyotdagi roli hisoblanadi. Maqolada sukuk bo'yicha adabiyotlar miqdoriy tadqiqotdan ko'ra ko'proq sifatga asoslanganligi, akademik tadqiqotlarning asosiy qismi konferensiya va seminar ma'ruzalari shaklidaligi takidlangan. Shu bilan birga jurnal maqolalari, kitoblar, konferensiya ma'ruzalari, hisobotlari va jurnallari ko'rinishidagi sukuk bo'yicha tadqiqotlar sezilarli darajada oshgan bo'lsa-da, ammo islomiy moliya bo'yicha boshqa tadqiqotlar bilan solishtirganda u hali ham nisbatan kam ekanligi takidlangan. Sukuk bo'yicha tadqiqotlarning bunday rivojlanmagan holati asosan tarixiy, ishonchli va izchil ma'lumotlarning yetishmasligi, islom iqtisodiyoti va moliyasiga bag'ishlangan cheklangan miqdordagi ilmiy muassasalar; islomiy moliya bo'yicha tadqiqotlar uchun potensial manba sifatidagi yuqori sifatli hakamlar jurnallarining kam sonliligi; shariat ulamolari orasida hal qilinmagan sukuk tushunchasi; va islomiy moliya kurslari uchun global standart va akkreditatsiyaning yo'qligi bilan bog'liqligi takidlangan.

Mehmet Asutay va Amira Hakim (2017) "Sukuk bozorini joriy qilish orqali xalqaro iqtisodiy integratsiyani o'rganish: tarmoq istiqboli" nomli ilmiy ishida 2004-2014-yillar mobaynida sakkizta davlat orasida olib borilgan izlanishlar sukuk bozorlari orqali xalqaro moliyaviy-iqtisodiy integratsiya darajasini o'rganish va sukuk bozorlari orqali xalqaro moliyaviy integratsiya darajasini o'lchash va sukuk emitentlari o'rtasidagi aloqani o'rganishga qaratilgan. Mualliflarning fikriga ko'ra islomiy moliya moliyaviy globallashuv sharoitida iqtisodiy inqirozlardan himoyalani va operatsiyalarda axloqiy qadriyatlarini ilgari surish uchun strategik variant sifatida namoyon bo'la oladi. Biroq, konservativ tartibga solish muhiti va integratsiyaning yo'qligi sababli, ayrim mamlakatlarda sukuk bozorlari o'z salohiyatiga erisha olmaydi. Mualliflar ijobiy ta'sirga ega bo'lish uchun islom moliyasiga mos keladigan tartibga solish tizimini ishlab chiqish muhimligini alohida ta'kidlab o'tishgan.

O'zbekistonda ham islom moliyasi va islomiy moliyalashtirishga keng ko'lamli qiziqish ortib borayotganligini hisobga olgan holda bu sohada ko'plab ilmiy ishlar qilib kelinmoqda bularga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

Abrorov Sirojiddin va Imamnazarov Jahongir (2021) "Islom moliyasi: O'zbekiston uchun yangi imkoniyatlar" nomli maqolasida, islom moliyasi, xususan, sukuk – islom qimmatli qog'ozlarining jahon moliya bozoridagi hajmi va ahamiyatining o'sishi, hamda O'zbekistonda islom moliyasining joriy holati tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekistonda islom moliyasini joriy qilish va rivojlantirish bilan bog'liq so'rovnoma natijalari ham keltirilgan.

Abrorov Sirojiddin (2023) "sukuk bozorini rivojlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari" nomli ilmiy asarda islomiy qimmatli qog'oz hisoblangan sukuklar tahlili olib borilgan. Sukuk emissiyasi va muomalasi borasida xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganilgan. Mamlakatlar va yillar kesimida berilgan statistik ma'lumotlar bo'yicha muallif tomonidan o'z munosabati va fikrlari izohlangan. Tadqiqot natijasi bo'yicha

mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun muhim hisoblangan xulosalar keltirilgan. Maqola sukuk instrumentidan foydalanish samaralariga urg'u berilgan.

Isayev Oybek (2022) "O'zbekistonda ta'lim dasturlari orqali islom moliyasi, xususan, sukukni chuqur o'rganish zaruriyati" nomli ilmiy ishida sukukning keng joriy etilishi O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozori (fond bozori), davlat va xususiy kompaniyalar uchun tashqi va ichki investorlarni jalb qilishda yangi moliyaviy vositalarni taqdim etishi bilan birga O'zbekistondagi aholi va ko'pgina biznes vakillari o'z bo'sh mablag'larini qadriyatlariga mos ravishda ko'paytirishiga imkon yaratilishi bo'yicha dolzarb muammolarni hal etishga xizmat qilishi va Islom moliyasining barcha xizmat turlaridan keng qo'llashga zaruriyat borligi to'g'risida mulohazalar ilgari surilgan. Shuningdek, O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorida an'anaviy aksiyalar va obligatsiyalar bilan birgalikda Islom moliyasi mahsulotlaridan biri hisoblangan sukukni ham qo'llash mumkinligi, buni dunyodagi yetakchi davlatlar ham amalda muvofaqiyatli qo'llayotganlari va O'zbekistondagi sukuk bo'yicha qonun hujjatlari ishlab chiqishga birinchi qadam qo'yilgani, shuningdek, sukukni ta'limga kiritish dolzarbligini takidlab o'tilgan.

Raxmanov Ulug'bek (2023) "O'zbekiston respublikasida islomiy moliyalashning huquqiy asoslari" nomli ilmiy ishida mamlakatimizda islomiy moliyalashtirishni rivojlanish moyilliklari, raqobat muhiti va imkoniyat tamoyillarini joriy etish va amaldagi qonunchilikka qator o'zgartirishlar kiritish orqali bu sohani tezda yo'lga qo'yib olish mumkinligi, buning uchun esa avvalo tijorat banklari tarmog'ining halol, shaffof raqobat muhitini yaratish hamda bank tizimi aktivlarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini mustahkamlash zarurligi to'g'risidagi o'zining tanqidiy mulohazalarini bayon qilgan.

### **Xulosa va takliflar.**

Islom moliyasi va islomiy moliyaviy instrumentlarni O'zbekiston iqtisodiyotiga tatbiq qilishda me'yoriy, huquqiy asoslar ishlab chiqilayotganli va bungacha bir qancha bosqichlar bosib o'tilganligini ko'rishimiz mumkin. Islom moliyasini mamlakatimiz iqtisodiyotiga joriy etishda va islomiy qimmatli qog'ozlarni emissiya qilishda mavjud risklarni inobatga olgan holda jahon tajribasini, jumladan yaqin sharq hamda Okeaniya mintaqasi mamlakatlari tajribalarini o'rganish barobarida, mustahkam huquqiy asos yaratish zaruriyati mavjud deb hisoblayman. Bugungi kunda yurtdoshlarimiz e'tiqodiy qarashlari sabab an'anaviy moliyaviy instrumentlarga kiritgan investitsiyalar hajmi iqtisodiyotda mavjud kapitalga nisbatan ancha past ko'rsatkichni tashkil etadi. Natijada iqtisodiyot rivojlanishi sekinlashadi, xufiyona iqtisodiyot qamrovi yanada kengayadi. Agarda mamlakatimizda islomiy banklar faoliyati yo'lga qo'yilsa, o'ylaymanki aholi qo'lidagi bo'sh turgan pul mablag'larini shunday islomiy banklarga qo'yishlari yoki islomiy qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilishlari jadal suratlarida rivojlanadi.

Olimlarning ilmiy ishlarini o'rgangan holda shuni ham qo'shimcha qilish mumkinki islom banklari ham risklardan holi emas va bu o'z navbatida jahon tajribasining mamlakatimizga kerakli qismlarinigina qo'llashimiz kerakligini ko'rsatadi. Bu o'z navbatida O'zbekiston iqtisodiyotida tub burilish qayd etishi va rivojlanishning keyingi bosqichiga chiqishga o'zini ta'sirini ko'rsatadi. Islom iqtisodiyoti va moliyasi, islomiy qimmatli qog'ozlar haqida ilmiy manbalar va ayni davrdagi kuzatilayotgan tendensiyalar va taklif qilinayotgan yangi moliyaviy instrumentlar sonining ko'payib borishi kelajakda amalga oshirish zarur bo'lgan ilmiy tadqiqotlar hajmini yanada oshirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Qo'shimcha ravishda, O'zbekistonda islom moliyasi tizimi mavjud emasligi, shuningdek sukuklarni emissiya qilish uchun huquqiy asos mavjud bo'kmagan sharoitda, islom moliyasining ba'zi elementlariga duch kelish mumkin. Bu esa mamlakatda islom moliyasi, xususan, sukuklarni amaliyotda keng qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun esa O'zbekiston me'yoriy-huquqiy hujjatlarining amaldagi holatini o'rganish, shuningdek, O'zbekistonda sukuk instrumentini emissiya qilish va undan samarali foydalanish uchun kerakli qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish kerakligini

ko'rsatib berdi. Natijada, ushbu instrumentni O'zbekiston fond bozoriga muvaffaqiyatli va samarali joriy etishda qonunchilik, kadrlar masalasi va shariat kengashi kabilarni o'z ichiga oluvchi kompleks yondashuvga asoslangan strategiya ishlab chiqib, bir necha bosqichlarda amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsata.

#### **Adabiyotlar / Literatura / Reference:**

Abdelghani Echchabi et al. (2016). Does sukuk financing promote economic growth? An emphasis on the major issuing countries. *The Turkish Journal of Islamic Economics*, 3, pp. 63-73.

Abdul Rahman Yousri Ahmad. (2018). Islamic securities in muslim countries' stock markets and an assessment of the need for an islamic secondary market. *The Islamic economic studies*, 3, pp. 2-47.

Abrorov Sirojiddin va Imamnazarov Jahongir. (2021). *Islom moliyasi: O'zbekiston uchun yangi imkoniyatlar*. Iqtisodiyot va ta'lim, 4, pp. 146-149.

Abrorov Sirojiddin. (2023). Sukuk bozorini rivojlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 1, pp. 13-20.

Andrea Foglie and Ida Panetta. (2020). Islamic stock market versus conventional: Are islamic investing a 'Safe Haven' for investors? A systematic literature review. *The pacific-basin finance*, 64, pp. 2-29.

Andrea Paltrinieri et al. (2023). A bibliometric review of sukuk literature. *The international review of economics and finance*, 86, pp. 897-918.

Ezzedine Ghlamallah et al. (2021). The topics of Islamic economics and finance research. *The international review of economics and finance*, 75, pp. 45-160.

Houcem Smaoui and Salem Nechi. (2017). Does sukuk market development spur economic growth? *The pacific-basin finance*, 54, pp. 42-54.

IFSB.org (2023). *The IFSB issued the Thirteenth Edition of its Annual Flagship Publication: The Islamic Financial Services Industry (IFSI) Stability Report 2023*. 15.04.2023.

Isayev Oybek. (2022). O'zbekistonda ta'lim dasturlari orqali islom moliyasi, xususan, sukukni chuqur o'rganish zaruriyati. *Global dunyoda ilm-fan va ta'limdagi innovatsion rivojlanishning zamonaviy trendlari ilmiy-amaliy konferensiya*, 15.12.2022, 115-119.

Kun.uz (2024). O'zbekistonda doimiy aholi soni har kuni o'rtacha 2,1 ming kishiga oshmoqda. 13.01.2023

Mamoru Nagano. (2016). Who issues Sukuk and when?: An analysis of the determinants of Islamic bond issuance. *The review of Financial Economics*, 31, pp. 45-55.

Mehmet Asutay and Amira Hakim. (2017). Exploring International Economic Integration through. *The research international business and finance*, 46, pp. 77-94.

Mohamed Amrani et al. (2017). Sukuk: Literature Review. *The social and administrative science*, 4, pp. 124-131.

Muhamed Zulkhibri. (2015). A synthesis of theoretical and empirical research on sukuk. *The borsa international review*, 15, pp. 237-248.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2023). "O'zbekiston 2030" Strategiyasi. PF-158-son.

Raxmanov Ulug'bek. (2023). O'zbekiston respublikasida islomiy moliyalashning huquqiy asoslari. *Journal of Advanced Research and Stability*, pp. 535-537.

Siti Sarah et al. (2019). The contracts, structures and pricing mechanisms of sukuk: A critical assessment. *The borsa international review*, 19, pp. S21-S33.

Spot.uz (2019). Islamskiy bank razvitiya: vnedreniye islamskogo bankinga pozvolit Uzbekistanu privlech \$10 mlrd. 15.04.2019.